OMMAVIY OFERTA

INPAY.UZ TO‘LOV PLATFORMASI

Kuchga kirgan / so‘nggi tahrir sanasi: 07.09.2026

Ushbu Ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda — “Shartnoma”) ***“OCHILBOYEV NURILLO NODIRJON O‘G‘LI” Yakka tartibdagi tadbirkor*** *(keyingi o‘rinlarda — “Xizmat ko‘rsatuvchi”) tomonidan e’lon qilinadi va Xizmat ko‘rsatuvchi hamda inPAY.uz platformasidan foydalanuvchi (keyingi o‘rinlarda — “Foydalanuvchi”) o‘rtasida tuziladi.*

Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, shuningdek umummilliy va xalqaro to‘lov tizimlari, jumladan YooKassa talablari asosida yuritiladi. Platformadan ro‘yxatdan o‘tish yoki foydalanish Foydalanuvchining ushbu Shartnoma shartlariga to‘liq va so‘zsiz rozilik bildirganini anglatadi.

XIZMAT KO‘RSATUVCHINING REKVIZITLARI

TASHKILOT	**“OCHILBOYEV NURILLO NODIRJON O‘G‘LI” YaTT**
STIR (INN)	**641025183**
JSHSHIR (PINFL)	**52802046980020**
BANK	**TBC Bank**
HISOB RAQAMI (H/R)	**2021 8000 0073 2179 7002**
MANZIL	**Farg‘ona viloyati, Furqat tumani, Eshon MFY, Nurafshon ko‘chasi, 204**
TELEFON	**+998 33 571-77-17**
ELEKTRON POCHTA	**nurilloochilboyev@gmail.com**

1. Hamkorlikni boshlash talablari

1.1. inPAY.uz veb-sayti, Telegram boti va boshqa loyihalarimizdan ro‘yxatdan o‘tgan har qanday shaxs ushbu Shartnomaga rozilik bildirgan hisoblanadi.

1.2. Ushbu Shartnoma Xizmat ko‘rsatuvchining bir tomonlama qaroriga asosan bekor qilinishi mumkin.

1.3. Xizmat ko‘rsatuvchi Shartnomaning bekor qilinish sababini maxfiy saqlash huquqiga ega.

2. Taqiqlangan materiallar bilan ishlash

- O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlatilishi taqiqlangan barcha mahsulotlardan foydalanish taqiqlanadi.
- Pornografik materiallar yaratish, qayta ishlash va tarqatish man etiladi.
- Terroristik ma’lumotlar yaratish va tarqatish taqiqlanadi.
- Bukmeker, moliyaviy piramida va pul yuvish loyihalari qat’iyan man etiladi.
- Foydalanuvchi yuqorida ko‘rsatilgan taqiqlangan materiallardan foydalanganda Shartnoma Xizmat ko‘rsatuvchi tomonidan bekor qilinadi.

3. Xizmat ko‘rsatuvchining majburiyatlari

3.1. Onlayn to‘lovlarni amalga oshirishni o‘z zimmasiga oladi.

3.2. Har qanday yangilanish to‘g‘risida Foydalanuvchilarni xabardor qiladi. Yangilanishlar inPAY.uz rasmiy sahifalari hamda Telegramdagi rasmiy **@inPAYuzbot** orqali yetkaziladi.

4. Foydalanuvchining majburiyatlari

4.1. Ushbu Shartnoma qoidalariga qat’iy amal qilishi shart.

4.2. inPAY.uz ma’lumotlaridan foydalanganda saytni manba sifatida ko‘rsatishi shart.

4.3. inPAY.uz nomidan boshqa joylarda ma’lumot tarqatishi taqiqlanadi.

4.4. Xizmatdan istalgan vaqtda voz kechish huquqiga ega.

4.5. O‘z ma’lumotlarini yangilash va o‘chirish huquqiga ega.

4.6. Shikoyat va taklif bildirish huquqiga ega.

5. Foydalanuvchilar bilishi kerak bo‘lgan talablar

5.1. Ushbu Shartnoma istalgan vaqtda Xizmat ko‘rsatuvchi tomonidan o‘zgartirilishi yoki unga qo‘shimcha kiritilishi mumkin.

5.2. Yangilangan Shartnoma inPAY.uz rasmiy saytida e’lon qilinadi.

6. To‘lov uchun asosiy talablar

6.1. Umumiy qoidalar

Hamkor platformadan foydalanish orqali ushbu Shartnomaga rozilik bildiradi.

6.2. Tomonlarning majburiyatlari

inPAY.uz — xizmatlarni sifatli ko‘rsatish va qonuniy to‘lovlarni amalga oshirish; Hamkor — faqat haqiqiy va qonuniy ma’lumotlarni taqdim etish.

6.3. Hujjatlarni taqdim etish

Hamkor hujjatlarni platforma orqali yuklashi shart. Barcha hujjatlar inPAY.uz ma’muriyati tomonidan tekshiriladi.

6.4. Qonuniy mas’uliyat

Soxta yoki noqonuniy ma’lumotlar taqdim etilsa, Shartnoma bekor qilinadi va qonuniy choralar koʻriladi.

6.5. Shartnomani oʻzgartirish

inPAY.uz istalgan vaqtda Shartnomaga oʻzgartirish kiritish huquqiga ega. Yangilangan shartlar e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.6. Pul yechish va toʻlov

Hamkor uchun platformadan pul yechish komissiyasi tizimda belgilangan komissiya asosida hisoblanadi. Komissiya miqdori tanlangan tarif va toʻlov usuliga qarab farq qilishi mumkin hamda har bir operatsiya tasdiqlanishidan oldin koʻrsatiladi.

6.7. Komissiya

Har bir pul yechib olish uchun tizim komissiyasi ushlab qolinadi; uning miqdori operatsiya tasdiqlanishidan oldin koʻrsatiladi.

6.8. REFUND (qaytarish) tizimi

Toʻlov bekor qilingan yoki notoʻgʻri amalga oshirilgan holatda, Foydalanuvchi REFUND (pulni qaytarish) soʻrashi mumkin. Refund muddati **5–7 ish kunini** tashkil etadi. Pul faqat Foydalanuvchining oʻz hisobiga qaytariladi.

7. Maxfiylik siyosati

Biz Foydalanuvchilardan qanday ma’lumotlarni olamiz?

Biz bilan hamkorlik qilayotgan Foydalanuvchilardan asosan elektron pochta, ism va Telegram ID ma’lumotlari qabul qilinadi. Ushbu ma’lumotlar xizmatlarimizni yetkazish va Foydalanuvchi ma’lumotlari xavfsizligini ta’minlash uchun talab qilinadi.

Ma’lumotlar uchinchi shaxslarga beriladimi?

Yoʻq. Biz hech qanday ma’lumotni uchinchi shaxslar bilan baham koʻrmaymiz. Asosiy qoidalarimizga koʻra Foydalanuvchilar ma’lumotlari maxfiy saqlanadi.

Foydalanuvchidan boshqa ma’lumotlar talab qilinishi mumkinmi?

Ha, loyihalarimizni rivojlantirish davomida Foydalanuvchilardan yangi ma’lumotlar talab qilinishi mumkin. Bunday ma’lumotlar Foydalanuvchi ogohlantirilgan holda qabul qilinadi. Ba’zi hollarda buyurtmalarni boshqarishda Foydalanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar ham talab qilinishi mumkin. Ushbu ma’lumotlar har qanday holatda ham maxfiy saqlanadi.

Foydalanuvchilar ma’lumotlarini oʻchirishi mumkinmi?

Ha. Foydalanuvchilar istalgan vaqtda oʻz ma’lumotlarini toʻliq oʻchirishni soʻrab ariza yuborishlari mumkin. Buning uchun **inpay.uz/account-delete** sahifasi orqali ariza qoldirish yoki

@inpayuz_support Telegram yordam xizmatiga, oʻchirilishi kerak boʻlgan hisobga bogʻlangan Telegram orqali xabar yuborish yetarli. Ma’lumotlar 3 ish kuni ichida oʻchiriladi va natija Foydalanuvchi profiliga xabar qilinadi.

Foydalanuvchi ma’lumotlaridan foydalanish

Foydalanuvchi ushbu Shartnomaga rozilik bildirgan holda oʻz ma’lumotlarini qayta ishlashga ruxsat beradi. inPAY.uz saytida cookie va loglardan foydalaniladi; ular xizmat sifatini oshirish maqsadida qoʻllanadi.

Oʻchirilgan ma’lumotlarni tiklash mumkinmi?

Yoʻq. Oʻchirilgan ma’lumotlar uchun javobgarlik boʻlmaydi va ularni tiklash imkoniyati mavjud emas.

8. Biz bilan bogʻlanish

Savol, taklif yoki muammo boʻlsa, quyidagi rekvizitlar orqali biz bilan bogʻlanishingiz mumkin:

XIZMAT KOʻRSATUVCHI	**“OCHILBOYEV NURILLO NODIRJON OʻGʻLI” YaTT**
STIR (INN)	**641025183**
BANK	**TBC Bank**
HISOB RAQAMI	**2021 8000 0073 2179 7002**
QOʻLLAB-QUVVATLASH XIZMATI	**support@inpay.uz**
RAHBAR BILAN SHAXSIY MASALALAR	**nurilloochilboyev@gmail.com**
TELEFON	**+998 33 571-77-17**
MANZIL	**Fargʻona viloyati, Furqat tumani, Eshon MFY, Nurafshon koʻchasi, 204**

9. Tarifni avtomatik uzaytirish (avto-to‘lov)

9.1. Kartani bog‘lash

Foydalanuvchi shaxsiy kabinetining «Obuna» bo‘limida o‘z bank kartasini bog‘lashi va tanlangan tarif uchun avtomatik uzaytirishni yoqishi mumkin. Kartani bog‘lash bank yuborgan SMS-kod bilan tasdiqlanadi.

9.2. Rozilik

Kartani bog‘lab, avtomatik uzaytirishni yoqish orqali Foydalanuvchi tarif muddati tugaganda navbatdagi davr uchun tarif narxi shu kartadan to‘lov tashkilotining saqlangan tokeni orqali, qo‘shimcha tasdiqlashsiz yechib olinishiga rozilik beradi.

9.3. Yechiladigan summa

Yechiladigan summa — Foydalanuvchi tanlagan tarifning to‘lov kunidagi amaldagi narxi. Tarif narxlari **inpay.uz** saytida e’lon qilinadi. Narx o‘zgarsa, Foydalanuvchi bu haqda navbatdagi yechimdan oldin shaxsiy kabinet va (yoki) Telegram orqali xabardor qilinadi.

9.4. Bildirishnomalar

Har bir yechim natijasi (muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz) haqida Foydalanuvchiga shaxsiy kabinet va Telegramdagi rasmiy **@inPAYuzbot** orqali bildirishnoma yuboriladi.

9.5. O‘chirish

Foydalanuvchi avtomatik uzaytirishni istalgan vaqtda «Obuna» bo‘limidagi kalit orqali o‘chirishi yoki bog‘langan kartani «Mening kartalarim» sahifasida o‘chirishi mumkin. O‘chirilgandan so‘ng keyingi davrlar uchun pul yechilmaydi; to‘langan davr oxirigacha tarif amal qiladi.

9.6. Muvaffaqiyatsiz yechim

Kartada mablag‘ yetarli bo‘lmasa yoki bank to‘lovni rad etsa, tarif uzaytirilmaydi. Xizmat ko‘rsatuvchi yechimni qayta urinishga haqli; bu haqda Foydalanuvchi xabardor qilinadi.

9.7. Karta ma’lumotlari

Xizmat ko‘rsatuvchi karta raqamini saqlamaydi. Faqat to‘lov tashkiloti bergan token shifrlangan holda saqlanadi va faqat ushbu bo‘limda ko‘rsatilgan maqsadda ishlatiladi.

10. Avtomatik yechilgan to‘lovni qaytarish

10.1. Murojaat tartibi

Avtomatik yechilgan to‘lovni qaytarish **faqat qo‘llab-quvvatlash xizmati orqali** amalga oshiriladi. Foydalanuvchi **support@inpay.uz** elektron pochtasiga yoki Telegramdagi

@inpayuz_support yordam xizmatiga murojaat qiladi va hisob logini (yoki telefon raqami), to‘lov sanasi hamda summasini ko‘rsatadi.

10.2. Ko‘rib chiqish

Murojaat 3 (uch) ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi va natijasi haqida Foydalanuvchiga javob beriladi. Pul xato yoki Foydalanuvchining roziligisiz yechilgan bo‘lsa (masalan, avtomatik uzaytirish o‘chirilganidan keyin), summa to‘liq qaytariladi. Boshqa hollarda qaror ushbu Shartnoma shartlari asosida qo‘llab-quvvatlash xizmati tomonidan qabul qilinadi.

10.3. Qaytarish muddati

Qaytarish tasdiqlangan kundan boshlab **5–7 ish kuni** ichida amalga oshiriladi. Pul faqat to‘lov amalga oshirilgan kartaga qaytariladi.

> Ushbu 9- va 10-bo‘limlar Shartnomaning ajralmas qismi bo‘lib, **03.10.2026** sanasidan kuchga kiradi. 6.8-banddagi umumiy qaytarish qoidalari o‘z kuchida qoladi.

11. Penny ruxsati orqali sotuvchi tashabbusi bilan to‘lov

11.1. Ruxsat berish

Xaridor Penny hisobiga kirib (SMS kod yoki PIN bilan) saqlangan kartasini tanlaydi va muayyan Sotuvchiga (inPAY kassasiga) shu kartadan Xaridor ishtirokisiz pul yechishga ruxsat beradi. Ruxsat sahifasida Sotuvchi nomi va bitta yechimning eng katta summasi ko‘rsatiladi; Xaridor «Ruxsat berish» tugmasini bosish orqali shu shartlarga rozilik bildiradi.

11.2. Chegara

Sotuvchi har bir yechimda ruxsatda ko‘rsatilgan summadan ortiq yecha olmaydi. Chegaradan ortiq so‘rov tizim tomonidan rad etiladi.

11.3. Xabardor qilish

Ruxsat berilganda, har bir yechimda va ruxsat bekor qilinganda Xaridorga SMS xabar yuboriladi. Xabarda karta raqamining oxirgi raqamlari, Sotuvchi nomi, summa, yechim sababi va mandat kodi ko‘rsatiladi.

11.4. Ruxsatni bekor qilish

Xaridor ruxsatni istalgan vaqtda Penny kabinetidagi «Ulangan do‘konlar» bo‘limida bekor qilishi mumkin. Karta Penny hisobidan o‘chirilsa, shu kartaga berilgan barcha ruxsatlar ham bekor bo‘ladi. Bekor qilingandan so‘ng Sotuvchi bu kartadan pul yecha olmaydi.

11.5. Sotuvchining majburiyatlari

Sotuvchi faqat Xaridor bilan kelishilgan tovar yoki xizmat uchun, yechim sababini ko‘rsatgan holda pul yechadi. Nizo yuzaga kelganda Sotuvchi yechim asosini tasdiqlovchi ma’lumotlarni Xizmat ko‘rsatuvchiga taqdim etishi shart.

11.6. Javobgarlik

Xizmat ko‘rsatuvchi to‘lovni amalga oshirishda texnik vositachi hisoblanadi. Tovar yoki xizmatning sifati, yetkazib berilishi va Xaridor bilan kelishuv shartlari uchun Sotuvchi javob beradi.

12. Sotuvchi tashabbusi bilan yechilgan to‘lovni qaytarish

12.1. Murojaat tartibi

Qaytarish **faqat qo‘llab-quvvatlash xizmati orqali** amalga oshiriladi. Xaridor **support@inpay.uz** elektron pochtasiga yoki Telegramdagi **@inpayuz_support** yordam xizmatiga murojaat qiladi va telefon raqami, to‘lov sanasi, summasi hamda Sotuvchi nomi yoki SMS’dagi mandat kodini ko‘rsatadi.

12.2. Koʻrib chiqish

Murojaat 3 (uch) ish kuni ichida koʻrib chiqiladi; zarur hollarda Sotuvchidan tushuntirish soʻraladi. Natija haqida Xaridorga javob beriladi.

12.3. Toʻliq qaytariladigan holatlar

Pul Xaridorning ruxsatisiz, ruxsat bekor qilinganidan keyin, ruxsatda koʻrsatilgan chegaradan ortiq yoki xato (takroriy) yechilgan boʻlsa, summa toʻliq qaytariladi.

12.4. Tovar va xizmat boʻyicha nizolar

Tovar yoki xizmatning sifati, yetkazib berilmagani yoki kelishuv shartlari boʻyicha da’volar Sotuvchiga qaratiladi. Xizmat koʻrsatuvchi nizoni hal qilishda koʻmaklashadi va Sotuvchi roziligi yoki asosli da’vo mavjud boʻlganda qaytarishni amalga oshiradi.

12.5. Qaytarish muddati

Qaytarish tasdiqlangan kundan boshlab **5–7 ish kuni** ichida amalga oshiriladi. Pul faqat toʻlov amalga oshirilgan kartaga qaytariladi.

Ushbu 11- va 12-boʻlimlar Shartnomaning ajralmas qismi boʻlib, **04.10.2026** sanasidan kuchga kiradi.